

**Ob'ektni Texnik qo'riqlash punkti (TQM) orqali  
qo'riqlash shartnomasi.**

«13» 9.11.2022 2022yil.

QB/ 61 -son

Buxoro shaxri.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizomi asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumaev** (keyingi o'rinlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladi) bir tomondan, Qorako'l tuman Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli ob'yekt rahbari **E.T. Doniyorovich** (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**I bob. Shartnoma predmeti**

**1. Ijrochi** texnik qo'riqlash punkti (TQM), mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**II bob. Umumiy shartlar**

**2. Buyurtmachi**, Qorako'l tuman Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli ob'yektni qo'riqlashga topshiradi, **Ijrochi** esa ushbu ob'ektlarni **Qorako'l tuman QB TQM hamda Tashvish tugmasi** orqali qo'riqlash uchun qabul qiladi

**3.** Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash **Buyurtmachi** tomonidan amalga oshiriladi. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

**4.** Ob'ektning texnik mustahkamligi to'g'risidagi, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi texnik (QYoOT) vositalari bilan jihozlangan joylar, kod bilan mahkamlanadigan moslamalar va boshqa ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilova va tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatiladi.

**III bob. To'lovlarni amalga oshirish.**

**5.** Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

A) Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan tariflarga mos holda bir oyda **301 683 (uch yuzi bir ming olti yuzi sakson uch)** so'mni, Shartnomaning umumiy baxosi **971 049** (to'qqiz yuzi yetmish bir ming qirq to'qqiz) so'mni tashkil qiladi. Qo'riqlash xizmati uchun hisob-kitoblar, mazkur shartnomaning grafigi asosida budjetdan va budjetdan tashqari ajratilgan mablag'lar asosida to'lanadi.

Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Jami 2022-yil Birinchi chorak uchun
367 683	301 683	301 683										971 049

**5.1.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi va faqat ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kirishi nazarda tutilgan, Shartnomani elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazish «**Buyurtmachi**» ning zimmasiga yuklanib, tomonlar o'rtasida imzolaniib, 3 kun ichida elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazilgach kuchga kiradi.

**6. Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

**7. Buyurtmachi** ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik to'lovning **100 foizi miqdoridagi** avans to'lovini, keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

**8. Buyurtmachi** mazkur Shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, **Ijrochi, Buyurtmachiga** akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

**9.** Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oying yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan olib borilgan to'lovlar bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).